



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3429-1
2026 - yil 16 - Aprel

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVI QARORI

“Benefitsiari budjet va korporativ buyurtmachilar bo'lgan to'lovlarni amalga oshirishda to'lanadigan vositachilik haqi (yig'imlar)ning chegaraviy miqdorini belgilash haqida”gi qarorning 1-bandiga o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-martdagi PQ-88-son “Aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 25-apreldagi 10/7-son “Benefitsiari budjet va korporativ buyurtmachilar bo'lgan to'lovlarni amalga oshirishda to'lanadigan vositachilik haqi (yig'imlar)ning chegaraviy miqdorini belgilash haqida”gi qarorining (ro'yxat raqami 3429, 2023-yil 25-aprel) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2023-y., 10/23/3429/0229-son) 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-martdagi PQ-88-son “Aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida”gi qarorining ilovasida ko'rsatilgan to'lovlarni amalga oshirishda har bir tranzaksiya bo'yicha to'lov xizmatlari uchun budjet va korporativ buyurtmachilar tomonidan to'lanadigan vositachilik haqi (yig'imlar)ning chegaraviy miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi etib belgilansin, bundan budjet va korporativ buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalarda boshqacha shartlar nazarda tutilgan holatlar mustasno.”.

2. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki Raisi
15-Aprel 2026-yil
10/15 son



ISHMETOV TIMUR
AMINDJANOVICH

Kelishildi:

Vazirning birinchi o'rinbosari
15-Aprel 2026-yil



NORQULOV ILHOM
IBROXIMOVICH

Tadbirkorlarning huquqlarini
himoya qilish bo'yicha vakil
15-Aprel 2026-yil



BURIYEV ABDUMANNOP
ABDURAXMATOVICH

Rais
11-Aprel 2026-yil



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH